



NAZOKAT KAMILOVA

# ADABIYOT

DARSLIGI MAVZULARI  
BO'YICHA TESTLAR  
TO'PLAMI

8-SINF

---



30 dan ortiq oliy toifadagi ekspert o'qituvchilar tomonidan barcha fanlar bo'yicha yozilayotgan kitoblar **«GOLDEN BOOKS»** belgisi ostida nashr qilinmoqda. Barcha o'qituvchilarga o'zaro fikr va ma'lumotlar almashish maqsadida biz bilan bog'lanishlarini taklif etamiz. Yangi nashrdan chiqqan kitoblarimiz va ularning keyingi nashrdan chiqish muddatlari, nashrdan keyin yuzaga kelgan kamchilik va xatolar haqida quyidagi telegram kanalimizga joylashtiramiz:

 **@onatiligoldenbooks**

**O'QITUVCHILAR UCHUN ALOQA:**



**+99897-510-25-43**



Nazokat KAMILOVA

# ADABIYOT

FANI 8-SINF DARSLIGI  
MAVZULARI BO'YICHA

# TESTLAR

TO'PLAMI

O'QITUVCHILAR, MAKTAB O'QUVCHILARI, AKADEMIK  
LITSEY TALABALARI, ABITURIYENTLAR VA MUSTAQIL  
TAYYORLANUVCHILAR UCHUN

TOSHKENT  
«ADABIYOT UCHQUNLARI»  
2019

**UO‘K: 398.21–053.4**  
**KBK: 82.3(5O‘)**  
**A – 16**

**Nazokat Kamilova Saidjonovna,**

Adabiyot fani 8-sinf darsligi mavzulari bo‘yicha testlar  
to‘plami / N. Kamilova «ADABIYOT UCHQUNLARI»  
nashriyoti, 2019. – 224 bet.

ISBN 978-9943-5101-5-9

UO‘K: 398.21–053.4  
KBK: 82.3(5O‘) A–16

***Taqrizchi:***

***Matkarimova Salomat*** – Xorazm viloyati Shovot tumani 5-son  
umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani  
o‘qituvchisi.

Mazkur testlar to‘plami **Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorovlarning adabiyot fani 8-sinf (2019-yil) darsligi** ma’lumotlarini chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan testlardan iborat bo‘lib, o‘qituvchilar, maktab o‘quvchilari, akademik litsey talabalari, abituriyentlar hamda mustaqil tayyorlanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

**Ushbu kitobni muallif ruxsatisiz chop qilish, nusxa ko‘chirish va sotish, turli xil internet tarmoqlarida tarqatish qonunga muvofiq ta’qiqlanadi.**

ISBN 978-9943-5101-5-9

© «ADABIYOT UCHQUNLARI», 2019-y.

## I BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODI

# 1-§. KIRISH. «KUNTUG‘MISH»

**«KUNTUG‘MISH» DOSTONI HAQIDA. «KUNTUG‘MISH».**  
**NAZARIY MA’LUMOT. ISHQIY-QAHRAMONLIK DOSTONLARI.**  
**(Darslikda 3–43-betlar)**

1. XX asr boshlarida baxshilar ijodiy bisotida nechta doston bo'lgan?  
A) 120 ga yaqin  
B) 130 dan ortiq  
C) 140 ga yaqin  
D) 150 dan ortiq
2. XX asrning 50-yillarida ko'plab xalq dostonlari qatori qaysi dostonga ham mehnatkash xalq manfaatini emas, balki yuqori tabaqalar manfaatini aks ettiradi, shuning uchun uni ommalashtirish zararlidir, degan mafkuraviy ayblar qo'yilib, «xalqqa zararli» deb e'lon qilingan?  
A) «Go'ro'g'li» dostoniga  
B) «Kuntug'mish» dostoniga  
C) «Ravshan» dostoniga  
D) «Alpomish» dostoniga
3. «Farhod va Shirin» dostonida Farhodning dushmani kim?  
A) Sheruya  
B) Xusrav  
C) Boniy  
D) Qorabotir
4. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiyanı qamrab olgan xunrezliklar haqida: «*Hayotda ko'rayotganlarim go'yo yuragimning ustini shilib tashlagandek bo'ldi. Shundan buyon mening qalbim har bir nohaqlikdan, adolatsizlikdan ta'sirlanib, achishadigan bo'lib qoldi*», – deya munosabat bildirgan adib kim?  
A) Lermontov  
B) Pushkin  
C) Gorkiy  
D) Yesenin
5. «Tohir va Zuhra» dostonida Tohirning dushmani kim edi?  
A) Sheruya  
B) Xusrav  
C) Boniy  
D) Qorabotir
6. Tarixda «Loy jangi» (1365-yil) nomi bilan qolib ketgan jang qaysi bobakalon sarkardamizning taqdirida muhim o'rin tutgan?  
A) Jaloliddin Manguberding  
B) Temur Malikning  
C) Boburning  
D) Amir Temurning

7. Folklorshunos To'ra Mirzayevning ma'lumotiga ko'ra, yirik dostonchilik maktablari qachon paydo bo'lgan?

- A) XVIII asrning boshlarida
- B) XIX asrning boshlarida
- C) XV–XVI asrlarda
- D) XVI–XVII asrlarda

8. «O'tkan kunlar» romanida Farhod(Otabek)ning dushmani kim edi?

- A) Qorabotir
- B) Homid
- C) Rahim
- D) Sodiq

9. Xalq dostonlarini kuylagan mashhur baxshilarni ko'rsating.

- 1) Tilla kampir;
  - 2) Sulton kampir;
  - 3) Rasulbek Hasan o'g'li;
  - 4) Bo'ron shoir;
  - 5) Jumanbulbul;
  - 6) Josoq;
  - 7) Yo'ldosh bulbul;
  - 8) Yo'ldosh shoir;
  - 9) Suyar shoir.
- A) 1, 2, 3, 5, 6, 7, 8, 9      B) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8, 9  
C) 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9      D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

10. Nechanchi asrlar o'zbek dostonchilik taraqqiyotida juda rivojlangan davr bo'lgan?

- A) XV–XVI asrlar
- B) XVI–XVII asrlar
- C) XVIII–XIX asrlar
- D) XIX–XX asrlar

11. Dostonchilik an'analarini rivojlantirgan baxshilarni toping.

- 1) Ergash Jumanbulbul;
  - 2) Fozil Yo'ldosh o'g'li;
  - 3) Salim Haydar o'g'li;
  - 4) Islom shoir;
  - 5) Saidmurod Panoh o'g'li;
  - 6) Berdi baxshi;
  - 7) Umir baxshi;
  - 8) Bola baxshi;
  - 9) Po'ltan shoir.
- A) 1, 2, 3, 4, 6, 8, 9      B) 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9  
C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8      D) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8, 9

12. «Kuntug'mish» dostonining qaysi baxshilardan yozib olingan variantlari bor?

- 1) Ergash Jumanbulbul o'g'li;
  - 2) Po'ltan shoir;
  - 3) Nurmon Abduvoy o'g'li;
  - 4) Egamberdi Ollomurod;
  - 5) Bekmurod Jo'raboy o'g'li.
- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 2, 4, 5  
C) 1, 2, 3, 5      D) 1, 3, 4, 5

13. «Kuntug'mish» dostonida qaysi qahramonlar «shirxo'ra» bo'lib, ular orasida «nikoh yurmaydigan» bo'lib qoladi?

- A) Kuntug'mish va Xolbeka
- B) Buvraxon va Xolbeka
- C) Xolmo'min va Bahragul
- D) Xolmo'min va Xolbeka

14. «Kuntug'mish» dostonida Xolbeka va Kuntug'mishning tushida ularni kimlar uchrashtiradi?

- A) mardon g'oyiblar
- B) parilar
- C) jinlar
- D) chiltanlar

15. «Kuntug'mish» dostoni qahramoni Gurkiboy qanday bola?

- A) biroz shaddod, biroz quv
- B) bosiq, vazmin, biroz quv
- C) biroz shaddod, aql bilan ish ko'radigan
- D) bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan

16. «Kuntug'mish» dostonidagi o'ziga bino qo'ygan, qahri qattiq, biroq ko'ngilchan obraz qaysi?

- A) Qoraxon
- B) Xolmo'min
- C) Azbarxo'ja
- D) Buvraxon

17. Xalq dostonlaridagi qaysi voqealar nasriy tarzda beriladi?

- A) doston voqealari va sarguzashtlari
- B) qahramonlar tavsifi va ruhiy kechinmalari
- C) qahramonlarning sarguzashtlari va ruhiy kechinmalari
- D) qahramonlar tavsifi va sarguzashtlari

18. «Kuntug'mish» dostonida Xolbeka yasatgan sandiqning sirti nimadan ishlangan edi?

- A) yoqutdan
- B) tilladan
- C) kumushdan
- D) marvariddan

19. «Kuntug'mish»da «Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo'r yarar kuningga» maqoli kimning tilidan aytilgan?

- A) Kuntug'mishning
- B) Gurkiboyning
- C) Qoraxonning
- D) qushbegining

20. «Kuntug'mish»da Kuntug'mish va Xolbeka qudoq (tulup)dan qaysi qush yordamida qutulib chiqishadi?

- A) quzg'un yordamida
- B) lochin yordamida
- C) burgut yordamida
- D) qirg'iy yordamida

21. «Kuntug'mish»da Azbarxo'janing qilmishidan so'ng Kuntug'mishga yordam berib, yo'lga suv va ovqat qoldirib ketgan kim?

- A) Qosim
- B) Zamonqul
- C) Mullavachcha
- D) Xolmo'min

22. «Kuntug'mish»da Mohiboyini baliq qornidan yorib olgan kim?

- A) Kattaqo'rg'onlik Olim sayyod
- B) Qatag'onlik Olim sayyod
- C) Kattaqo'rg'onlik Qosim sayyod
- D) Qatag'onlik Qosim sayyod

23. «Kuntug'mish»da «Ayg'il» radifli g'azal kimning tilidan aytilgan?  
A) karvonboshi B) sayyod  
C) baliqchi D) cho'pon
24. «Kuntug'mish»da «Zamon kimning zamoni, Qalandarxonning zamoni» ta'rifi qaysi hukmdorga nisbatan ishlatiladi?  
A) Kuntug'mishga B) Buvraxonga  
C) Avliyoyi Qoraxonga D) Xolmo'minga
25. «Kuntug'mish»da kim Xolbekaga farzandlarini ko'rsatadi?  
A) Xolmo'min B) Buvraxon  
C) Xolmo'minning xotini D) Kuntug'mish
26. «Kuntug'mish»da darvozabon qo'rboshi bilan janjallashib, uni o'ldirib qo'ygan aka-ukalar necha kun deganda Olatog'ga yetib boradilar?  
A) 5 kun B) 6 kun  
C) 7 kun D) 8 kun
27. «Kuntug'mish» dostonida qachon «Xon g'azabi – Xudo g'azabi» jumlasini ishlatiladi?  
A) ayg'oqchilar Kuntug'mish va Xolbekaning qayerda ekanini aytib berishganda  
B) Buvraxon Xolbekaning oldiga mirg'azablarini yuborganda, Gurkiboy va Mohiboy dor ostiga kelganda  
C) Kuntug'mish va Xolbekaga Buvraxon jazo tayin etmoqchi bo'lganda, Gurkiboy va Mohiboy dor ostiga kelganda  
D) Xolbeka va Kuntug'mishni tulupga solishganda
28. «Kuntug'mish» dostonidan olingan quyidagi parchada Bobo Zangidan madad so'rayotgan qahramonni toping.  
*Shonaman taralar qizlarning sochi,  
Madad qiling Bobo Zangi podachi.*  
A) Kuntug'mish B) Xolbeka  
C) Xolmo'min D) Gurkiboy
29. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mish dor ostidagi osilayotgan bolalar o'zining farzandlari ekanligini qanday taniydi?  
1) Gurkiboy va Mohiboyning «avval meni o'ldiring» degan so'zlaridan;  
2) Xolbekaning unga aytgan gaplaridan;  
3) bolalarining jallodlarga aytgan gaplaridan;  
4) Xolmo'minning bolalarga aytgan gaplaridan.  
A) 1, 4 B) 3, 4  
C) 2, 3 D) 1, 3



30. Quyidagi misralar muallifi kim?

*Muhabbatsiz kishi odam emasdur,  
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et.*

- A) Uvaysiy    B) Bobur    C) Nodira    D) Mashrab

31. «Kuntug'mish» dostonida quyidagi misralar kimning tilidan aytiladi?

*Qaladan qalampir yuklar qalachi,  
Durdonadan anbar tog'ning og'ochi.  
Analhaq deb Mansur dorga osildi,  
Assalom alaykum, dorning og'ochi.*

- A) Xolbeka    B) Kuntug'mishning  
C) Gurkiboyning    D) Mohiboyning

32. «Kuntug'mish»da Xolbeka bolalarini qanday tanib qoladi?

- A) Kuntug'mishning Mohiboyga aytgan so'zlaridan  
B) Xolmo'minning xotiniga aytgan so'zlaridan  
C) Gurkiboyning Mohiboyga aytgan so'zlaridan  
D) Mohiboyning Gurkiboyga aytgan so'zlaridan

33. «Kuntug'mish»da Gurkiboy va Mohiboy Zangarda kimning uyida xizmat qiladilar?

- A) Qosim ellikboshining  
B) Azbarxo'ja ellikboshining  
C) Zamonqul yasovulboshining  
D) Xolmo'min yasovulboshining

34. «Kuntug'mish»da Xolbeka va Kuntug'mish uch kun deganda qaysi tog'ga yetib keladi?

- A) Hisor    B) Asqar    C) Mug'ol    D) Zil

35. «Kuntug'mish» dostonida Xolbeka sandiqqa nimalarni soladi?

- A) suratini, bir tola sochini va o'zining uzugini  
B) suratini, bir tola sochini va Kuntug'mishning uzugini  
C) bir o'rim sochini, o'zining uzugini va bilakuzugini  
D) suratini, bir o'rim sochini va Kuntug'mishning tumorini

36. «Kuntug'mish» dostonida qo'llanilib, hikmatli so'z darajasiga ko'tarilgan jumalarni toping.

- 1) «Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, Yomon odam qilgan ishi minnatdir»;
- 2) «O'zingdan kattani uchratsang pir bil, O'zingni er bilsang, birovni sher bill»;
- 3) «Kamtarlikning kamoli bordir, manmanlikning zavoli bordir»;
- 4) «Zarning qadrini zargar bilar har yerda»;
- 5) «G'aribning ko'nglini ovlamoq savob»;
- 6) «Qilichdan seskanmas botirning tani»;

- 7) «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol»;  
 8) «Sanamay sakkiz dema».
- A) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8      B) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8  
 C) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7      D) 1, 2, 3, 4, 5, 8
37. «Kuntug'mish» dostonidagi hamiyatli, g'ururi baland qiz kim?  
 A) Xolbeka      B) Bahragul  
 C) Gulqiz      D) Xolmo'minning xotini
38. «Kuntug'mish» dostonida quyidagi so'zlarni Kuntug'mishga sharob ichirish yo'li bilan kim aytiradi, Kuntug'mish kimning huzurida aytadi?  
*Quloq songlar bu to'raning tiliga  
 Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga.  
 O'zlaring chog'langlar Zangar yo'lga  
 Do'stlar-ay, ko'ngil bir yor istaydir.*
- A) baxshi, otasi huzurida      B) qushnoch, qirq yigiti huzurida  
 C) tabib, otasi huzurida      D) folbin, qirq yigiti huzurida
39. «Kuntug'mish»da Xolbeka qaysi o'yinning mohir ustasi bo'lib yetishadi?  
 A) kurashning      B) ko'pkarining  
 C) nardning      D) qilichbozlikning
40. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mish necha yoshidan keyin sipohilik bilan mashg'ul bo'lib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, ko'pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlarini o'rganadi?  
 A) 11 yoshidan keyin      B) 13 yoshidan keyin  
 C) 14 yoshidan keyin      D) 16 yoshidan keyin
41. «Kuntug'mish» dostonining maktab darsligidagi varianti qaysi baxshidan yozib olingan?  
 A) Ergash Jumanbulbul o'g'lidan  
 B) Bekmurod Jo'raboy o'g'lidan  
 C) Nurmon Abduvoy o'g'lidan  
 D) Fozil Yo'ldosh o'g'lidan
42. «Kuntug'mish» dostonida qaysi qahramonlar qiyofasi o'ziga xos tarzda yoritilgan?  
 A) Azbarxo'ja, Bahragul, Zamonqul, Mullavachcha  
 B) Azbarxo'ja, Buvraxon, Mullavachcha, Zamonqul  
 C) Mullavachcha, Bahragul, Zamonqul, Xolmo'min  
 D) Azbarxo'ja, Buvraxon, Zamonqul, Xolmo'min

43. «Kuntug'mish»da Xolbeka: «Shu ko'rgan tushim rahmoniy bo'lsa, oshiq-ma'shuqlik avvaldan pok bo'lsa, Xudoyo xudovando, shu sandig'im senga omonat, to'radan boshqaga tegmasin», – deb oqizib yuborgan sandiqni kim ko'rib qoladi?

- A) Kuntug'mish
- B) Buvraxon
- C) baliqchi
- D) sayyod

44. «Kuntug'mish»da «Xon g'azabi – Xudo g'azabi» naqli necha o'rinda qo'llanilgan va kimlar aytgan?

- A) bir o'rinda: Buvraxonning saroy a'yonlari
- B) ikki o'rinda: Qoraxonning saroy umarolari, Zangar shahri xalqi
- C) ikki o'rinda: Buvraxonning saroy umarolari va Zangar shahri xalqi
- D) uch o'rinda: Gurkiboy, No'g'ay xalqi, Xolbeka

45. «Kuntug'mish»da kim Kuntug'mishni ziyofatda mast qilib, kigizga o'rab, ikki o'g'lini (go'dagini) ham shu sahroda qoldirib, Xolbekani bandi qilganicha Zangar yurtiga olib ketadi?

- A) Qosim
- B) Buvraxon
- C) Xolmo'min
- D) Azbarxo'ja

46. «Kuntug'mish»da ikkala bolasi va xotinidan ayrilgan Kuntug'mish qanday yo'lni tanlaydi?

- A) qalandarlik yo'lini
- B) karvonda savdogarlik yo'lini
- C) olimlik yo'lini
- D) sayyohlik yo'lini

47. «Kuntug'mish»da Xolbeka farzandlari bilan qayerda topishadi?

- A) Xolmo'min yasovulboshinikida
- B) Buvraxon saroyida
- C) dor tagida
- D) karvonsaroyda

48. «Kuntug'mish» dostonida quyidagi misralar kimning tilidan aytilgan?

*Mardlarning parvoyi bo'lmas o'limdan,  
Musulmonman, kalma kelar tilimdan.*

- A) Xolbekaning
- B) Kuntug'mishning
- C) Gurkiboyning
- D) Mohiboyning

49. «Kuntug'mish» dostonida Buvraxon Xolbekani ushlab kelgani uchun Azbarxo'jaga qanday tadbir qo'llaydi?

- A) Yuz darra urdiradi.
- B) Bo'yi baravar siym-u zar beradi.
- C) Zindonga tashlatadi.
- D) O'ng qo'l vaziri qilib tayinlaydi.

50. «Doston» soʻziforschada...

- A) Dramatik asar nomini anglatadigan soʻz boʻlib, u hatto komediya, tragediya singari sahna asarlariga ham nisbat beriladi.
- B) Lirik asar nomini anglatadigan soʻz boʻlib, u hatto lirik doston, sheʼriy ertaklarga ham nisbat beriladi.
- C) Epik asar nomini anglatadigan soʻz boʻlib, u hatto qissa, romandek katta nasriy asarlarga ham nisbat beriladi.
- D) Lirik asar nomini anglatadigan soʻz boʻlib, u hatto sheʼriy qissa, sheʼriy romandek katta nazmiy asarlarga ham nisbat beriladi.

51. «Kuntugʻmish» dostonida qanday tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan?

- A) ishtiyoq, tazod, kinoya, iyhom
- B) mubolagʻa, ishtiyoq, tazod
- C) oʻxshatish, mubolagʻa, kinoya
- D) tashxis, talmeh, iyhom

52. «Kuntugʻmish» dostonida voqealar soʻngida Zangarga kim podsho boʻladi?

- A) Kuntugʻmish
- B) Buvraxon
- C) Xolmoʻmin
- D) Gurkiboy

53. «Kuntugʻmish»da Xolbeka nima sababdan oʻgʻillarini Noʻgʻay yurtiga joʻnatib yuboradi?

- A) Zangar otalariga vafo qilmagani, ularga ham vafo qilmasligini oʻylab
- B) Buvraxon ularni jazolashidan qoʻrqib
- C) darvozabon qoʻrboshi bilan janjallashib, uni oʻldirganliklari sabab
- D) Kuntugʻmish ularni jazolashidan qoʻrqib

54. «Kuntugʻmish»da Gurkiboyni choʻponlar kimning bolasi deb bahslashishadi?

- 1) «Qirga chiqqan xotinning bolasi»;
  - 2) «Moʻltonining bolasi»;
  - 3) «Qozoqning bolasi»;
  - 4) «Bir uyquchi befarq xotinning bolasi»;
  - 5) «Bir oʻgʻrining bolasi».
- A) 1, 2, 4, 5    B) 1, 2, 3, 4    C) 2, 3, 4, 5    D) 2, 3, 5

55. «Kuntugʻmish»da kim daryodan kechadigan qayiqlarni suvga choʻktirib ketadi?

- A) Azbarxoʻja
- B) Buvraxonning aygʻoqchilari
- C) Buvraxon
- D) Buvraxonning mirshablari

56. «Kuntug'mish»da Kuntug'mish va Xolbeka tulupdan necha kunda qutuladi?

- A) 5 kunda      B) 6 kunda      C) 7 kunda      D) 9 kunda

57. Xalq dostonlarida qaysi voqealar she'riy tarzda beriladi?

- A) doston voqealari va sarguzashtlari  
B) qahramonlar tavsifi va ruhiy kechinmalari  
C) qahramonlar sarguzashtlari va ruhiy kechinmalari  
D) qahramonlar tavsifi va sarguzashtlari

58. «Kuntug'mish» dostonida Xolbekaning husn-u jamoliga mahliyo bo'lgan Azbarxo'ja xiyonatga yuz tutib, qanday ishlarni qiladi?

- 1) Kuntug'mishning ikki o'g'lini sahroda qoldirib ketadi;  
2) Kuntug'mishni ziyofatda mast qilib, kigizga o'rab ketadi;  
3) Kuntug'mishning sharobiga uyqu dori qo'shib beradi;  
4) Xolbekani Zangarga olib ketadi.  
A) 1, 2, 4      B) 1, 2, 3  
C) 1, 2, 3, 4      D) 1, 4

59. «Kuntug'mish»da Xolbeka ko'shkining qancha zinasi bor edi?

- A) yigirma      B) o'ttiz  
C) qirq      D) ellik

60. «Kuntug'mish»da Xolbekaning sovchilarga qo'ygan shartini davom ettiring.

*«Har kim meni olaman deb kelsa, ... »*

- A) oldiga ko'pkari chopishni qo'yaman, o'ynayman, yutsa, tegaman, yutdirsa, so'yaman  
B) Zil tog'idan poyga qilaman, chopaman, yutsa, tegaman, yutdirsa, so'yaman  
C) oldiga nard o'yinini qo'yaman, o'ynayman, yutsa, tegaman, yutdirsa, so'yaman  
D) oldiga jumboq qo'yaman, bilsa, tegaman, bilmasa, so'yaman

61. «Kuntug'mish» dostonida kimlar: «Bizlarga farzand bersa, o'g'il bo'lsa qo'lqanot bo'lsin, qiz bo'lsa do'st bo'lsin», – deb niyat qilishadi?

- A) Shoir va Tohir vazirlar      B) Kuntug'mish va Xolbeka  
C) Xolmo'min va Xolbeka      D) Qoraxon va Tohir vazir

62. «Kuntug'mish» dostoni qahramoni Kuntug'mish kimning yolg'iz o'g'li edi?

- A) laqabi Qilichxon bo'lgan No'g'ay yurti podshosi Avliyoyi Qoraxonning  
B) laqabi Qalandarxon bo'lgan Zangar yurti podshosi Buvraxonning  
C) laqabi Avliyo bo'lgan Zangar yurti podshosi Azbarxo'janing  
D) laqabi Qalandarxon bo'lgan No'g'ay yurti podshosi Qosimxonning

63. «Kuntug'mish»dan olingan quyidagi parchada nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

«Xolbeka ... kirgandan keyin ovozi olamga ketdi, dong'i ... o'tdi».

- A) o'n oltiga, Dog'istondan      B) o'n to'rtga, Dog'istondan  
C) o'n oltiga, Xitoydan      D) o'n to'rtga, Xitoydan

64. «Kuntug'mish» dostonida daryo sohilida ov qilib yurgan Kuntug'mish daryoda oqib kelayotgan sandiqning qaysi tomonini tanlaydi?

- A) sandiqning sirtini      B) sandiqning ichini  
C) sandiqning qulfini      D) sandiqning tagini

65. «Kuntug'mish» dostonida dastlab Qur'oni karimni o'rtaga qo'yib Kuntug'mish bilan do'stlashib, keyin unga xiyonat qilgan qahramon kim?

- A) Xolmo'min      B) Mullavachcha  
C) Azbarxo'ja      D) Zamonqul

66. «Kuntug'mish» dostonida Xolbeka kanizi kim?

- A) Zamongul      B) Bahragul      C) Oybib      D) Bahrinis

67. «Kuntug'mish»da Buvraxonning jallod va mirg'azablari Xolbeka va Kuntug'mish yashiringan joyni kimlardan bilib olishadi?

- A) karvondagilardan      B) kanizaklardan  
C) mirshablardan      D) ayg'oqchilardan

68. «Kuntug'mish» dostonidan olingan quyidagi misralar qaysi qahramon tilidan berilgan?

*E yor, alam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il,  
Ko'p ranj-u sitam ko'rgan, qaydin kelasan, ayg'il.*

- A) Kuntug'mish      B) dehqon  
C) Xolbeka      D) cho'pon

69. «Kuntug'mish»da Gurkiboy va Mohiboy No'g'ay yurtiga ketishda kim bilan janjallashib, uni o'ldirib ketishadi?

- A) darvozabon qo'rboshi bilan      B) mirshab bilan  
C) ellikboshi bilan      D) mingboshi bilan

70. «Kuntug'mish» dostonida Gurkiboy bilan Mohiboy Azbarxo'jaga bir paytlar qaysi cho'lda qumga belanib qolib ketganliklarini aytadilar?

- A) Qizilqum cho'lida      B) Zarchaman cho'lida  
C) Mirzacho'lda      D) Oqsuv cho'lida

71. Xalq dostonlari yozma adabiyotdagi «Suhayl va Guldursun», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlardan qaysi jihati bilan farq qiladi?

- A) fantaziya ko'lami, yozilish va aytilish uslubi, qahramonlar soni bilan
  - B) tasvir ko'lami, qahramonlar soni, voqealar ko'lami, hajmi, ko'z ko'rib quloq eshitmagan voqealari bilan
  - C) tasvir va fantaziya ko'lami, qahramonlar soni va xarakteri, voqealar ko'lami, hajmi, ko'z ko'rib quloq eshitmagan voqealari bilan
  - D) fantaziya ko'lami, ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealari, aql bovar qilmaydigan qahramonliklar tasviri bilan
72. «Kuntug'mish» dostonida tasvirlangan Qalandarxon kim?
- A) Avliyoyi Qoraxon
  - B) Buvraxon
  - C) Kuntug'mish
  - D) Xolmo'min
73. «Kuntug'mish»dagi Gurkiboy va Mohiboy ismlari bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotlarni toping.
- A) cho'ponlar tulkini gurki degan; sayyodlar baliqni mohi degan
  - B) cho'ponlar qizil iyak qari bo'rini mohi degan; sayyodlar baliqni gurki degan
  - C) cho'ponlar qizil iyak qari tulkini gurk degan; sayyodlar baliqni mohi degan
  - D) cho'ponlar bo'rini gurk degan; sayyodlar baliqni mohi degan
74. «Kuntug'mish»da Azbarxo'ja Kuntug'mishga qanday shart qo'yadi?
- A) karvonga qiron keltiruvchi sherni o'ldirish
  - B) karvonni talovchi qaroqchilarni o'ldirish
  - C) buloqni egallab yotgan ajdahoni o'ldirish
  - D) zolim hukmdor Buvraxonni o'ldirish
75. «Kuntug'mish» dostonida Mohiboy qanday bola?
- A) biroz shaddod, biroz quv
  - B) bosiq, vazmin, biroz quv
  - C) biroz shaddod, aql bilan ish ko'radigan
  - D) bosiq, vazmin, aql bilan ish ko'radigan
76. «Kuntug'mish» dostonidan olingan quyidagi so'zlar qaysi qahramonga tegishli?
- «Har kim Xolbeka deb aytsa, olti oy zindonda boqtiraman, suyagini toshga chaqtiraman, terisini tiriklay so'yaman, ichiga somon tiqtiraman, ikki ko'zini o'yaman, tepasiga moyini quyaman».*
- A) Buvraxonga
  - B) Qoraxonga
  - C) Qalandarxonga
  - D) Azbarxo'jaga
77. «Kuntug'mish» dostonida Xolbeka kimning qizi?
- A) Qoraxonning
  - B) Tohir vazirning
  - C) Shoir vazirning
  - D) Buvraxonning

78. «Kuntug'mish» dostonida Xolmo'min kimning o'g'li?  
A) Qoraxonning B) Tohir vazirning  
C) Shoir vazirning D) Buvraxonning
79. «Kuntug'mish» dostonida qora bosib o'lgan kim edi?  
A) Xolbekaning enasi B) Xolmo'minning enasi  
C) Qoraxonning xotini D) Buvraxonning xotini
80. «Kuntug'mish»da Kuntug'mish Zangar yurtiga qanday qiyofada boradi?  
A) mirg'azab B) gilamfurush C) bazzoz D) mirshab
81. «Kuntug'mish»da xasis, xudbin, razil karvonboshi kim?  
A) Qosim B) Buvraxon C) Xolmo'min D) Azbarxo'ja
82. «Kuntug'mish»da Gurkiboyni bo'ri og'zidan kimlar qutqaradi?  
A) dehqonlar B) cho'ponlar C) sayyodlar D) sayyohlar
83. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mishni nima uchun Zangarga podshoh qilib saylaydilar?  
A) Buvraxon Kuntug'mishga qoyil qolib, unga vasiyat qoldirgani uchun  
B) davlatqush uch marta uchirilganda ham uning boshiga qo'ngani uchun  
C) Kuntug'mishning dong'i Dog'istondan o'tib, xalq uning olimligiga ishongani uchun  
D) humo qushi uch marta uchirilganda ham uning boshiga qo'ngani uchun
84. «Kuntug'mish»da Olatog'da bir to'p yilqini haydab ketgan kim?  
A) Mohiboy B) Gurkiboy  
C) Azbarxo'ja D) Zamonqul
85. «Kuntug'mish» dostonidan olingan quyidagi misralar qaysi qahramon tilidan beriladi?  
*Yig'lasang Xudoga yig'la, enajon,  
Nima kelar quv og'ochning qo'lidan...  
...Kofirmiding, elanasan og'ochga?..*  
A) Xolmo'min B) Kuntug'mish  
C) Gurkiboy D) Mohiboy



86. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mish xat-xabarsiz ketgach, Qoraxon podsho necha yillardan beri o'zining o'rniga kimni podsho qilib qo'yib, o'zi tagizaminga kirib, toat-ibodatga mashg'ul bo'lib yotgan edi?

- A) bosh vazirni
- B) devonbegini
- C) mingboshini
- D) qushbegini

87. «Kuntug'mish» dostonidagi qaysi obrazlarda qahramonlik xususiyatlari namoyon bo'ladi?

- A) Kuntug'mish, Buvraxon, Gurkiboy, Qosim
- B) Kuntug'mish, Qosim, Qoraxon, Xolbeka, Gurkiboy
- C) Kuntug'mish, Qoraxon, Xolbeka, Gurkiboy, Mohiboy
- D) Kuntug'mish, Xolbeka, Gurkiboy, Mohiboy

88. «Kuntug'mish»da Kuntug'mish podshoh bo'lgach, qanday farmon chiqaradi va bu farmonga binoan navbat avval qaysi amaldorga keladi?

- A) *«Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan mehmonxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Xolmo'min ellikboshiga tegadi.*
- B) *«Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan jilovxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Zamonqul ellikboshiga tegadi.*
- C) *«Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan mehmonxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Zamonqul yasovulboshiga tegadi.*
- D) *«Mening chulon oshimga kelgan amaldorlarkim, bir hafta-bir haftadan jilovxonamda istiqomat qilib ketsin». Avval navbat Xolmo'min yasovulboshiga tegadi.*

89. «Kuntug'mish»da Xolbeka tomon yo'lga otlangan Kuntug'mishga kimlar hamrohlik qiladi?

- A) sayyodlar
- B) gazlamafurushlar
- C) 40 yigit
- D) 20 yigit

90. «Kuntug'mish» dostonida Buvraxon Xolbekani qayerda ko'rib qolib, unga oshiq bo'lib qoladi?

- A) 50 zinali ko'shkiga chiqib, olamni tomosha qilib o'tirgan paytida
- B) qirq kanizi bilan bog'da sayr qilib yurganida
- C) 40 zinali ko'shkiga chiqib, olamni tomosha qilib o'tirgan paytida
- D) ellik qizi bilan el ichida noz qilib yurganida

91. «Kuntug'mish» dostonida Buvraxon qayerning podshosi?

- A) Zangarning
- B) No'g'ayning
- C) Dog'istonning
- D) Qalmoqning

92. «Kuntug'mish»da Buvraxon Xolbekaga uylanish uchun qanday tadbir qo'llaydi?

- A) Shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib, yuz darra urishga farmon beradi.
- B) Shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib, ellik darra urishga farmon beradi.
- C) Shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib, qatl etishga farmon beradi.
- D) Shaharga Xolbeka deb kelgan odamni tutib, tilini kesishga farmon beradi.

93. «Kuntug'mish»da Kuntug'mish va uning qirq yigiti sandiqni qay tarzda bo'lib oladilar?

- A) Sirtini Kuntug'mish oladi, ichini kumushdan ishlangani uchun yigitlar oladi.
- B) Ichini Kuntug'mish oladi, sirtini kumushdan ishlangani uchun yigitlar oladi.
- C) Sirtini Kuntug'mish oladi, ichini marvaridlardan ishlangani uchun yigitlar oladi.
- D) Ichini Kuntug'mish oladi, sirtini tilladan ishlangani uchun yigitlar oladi.

94. «Kuntug'mish» dostonida quyidagi misralar kimning tilidan berilgan?

*O'lamon, deb mard qavlidan toyama,  
Yo'qchilik jo'mardning ko'zin o'yama.*

- A) Qoraxonning
- B) Kuntug'mishning
- C) Gurkiboyning
- D) Mohiboyning

95. «Kuntug'mish» dostonida quyidagi misralarni Xolbeka kimga qarata aytadi?

*Men seni shahzoda dedim, mard dedim,  
Sen qanday siynamga qo'ygan dard eding?*

- A) Kuntug'mishga
- B) Buvraxonga
- C) Mohiboyga
- D) Xolmo'minga

96. Xalq dostonlarining ko'pchiligiga xos xususiyatni toping.

- A) vatanparvarlik mavzusining ustunligi
- B) qahramonlik mavzusining ustunligi
- C) fantaziyaning ustunligi
- D) ishq-muhabbat mavzusining ustunligi

97. «Kuntug'mish»da: «Sher haybatli, yo'lbars sifatli», – deya ta'riflangan qahramon kim?

- A) Kuntug'mish
- B) Qosim
- C) Avliyoyi Qoraxon
- D) Buvraxon

98. «Kuntug'mish»da Kuntug'mish nimaning evaziga ajdarni o'ldirishga rozi bo'ladi?

- A) uyiga boradigan yo'lni ko'rsatish evaziga
- B) bir yilga yetadigan oziq-ovqat evaziga
- C) bir kosa suv va bir non evaziga
- D) karvonda bola-chaqalarini olib ketish evaziga

99. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mish necha yoshigacha ilm-u hunar o'rganadi?

- A) 10 yoshigacha
- B) 12 yoshigacha
- C) 13 yoshigacha
- D) 14 yoshigacha

100. «Kuntug'mish» dostonida ilk bora bir-birlarini tushlarida ko'rgan Xolbeka va Kuntug'mish tushida nimalarini almashib, turmush quradilar?

- A) uzuklarini
- B) tumorlarini
- C) kitoblarini
- D) xanjarlarini

101. «Kuntug'mish»da karvondagi yosh, insofli, diyonatli yigit kim edi?

- A) Zamonqul
- B) Xolmo'min
- C) Qosim
- D) Mullavachcha

102. «Kuntug'mish» dostonida kim: «Bo'yni yo'g'on bola», – deb ataladi?

- A) Gurkiboy
- B) Mohiboy
- C) Azbarxo'ja
- D) Xolmo'min

103. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mishning: *«Mening do'stimdan» o'chlaringni olinglar. Men do'stlik otini tutganman, qoshiga bormayman, yuzini ko'rmayman...»* – wdengan gaplariga binoan Gurkiboy va Mohiboy kimni jazolaydilar va u gapirolmay, ho'kizday bo'kirib-bo'kirib, itday bo'lib o'lib qoladi?

- A) Buvraxonni
- B) Qosimni
- C) Xolmo'minni
- D) Azbarxo'jani

104. «Kuntug'mish» qanday mavzudagi doston hisoblanadi?

- A) zamonaviy
- B) tarixiy
- C) ishqiy-sarguzasht
- D) ishqiy-qahramonlik

105. «Kuntug'mish» dostonida Tohir va Shoir vazirlar kimning vazirlari edi?

- A) Avliyoyi Qoraxonning
- B) Xolmo'minning
- C) Buvraxonning
- D) Kuntug'mishning

106. Sahroda qolishganda hayotdan umidini uzgan yori Xolbeking: «Meni tashlab ketaver, yo'qsa o'zing ham halok bo'lasan», – degan iltijosiga: «Bir g'ayrat qil, yo'limiz yaqin qoldi», – deb dalda bergan Kuntug'mishda qanday xislatni ko'rishimiz mumkin?

- A) samimiyat
- B) vafodorlik
- C) yaxshilik
- D) insof va diyonat

107. «Kuntug'mish» dostonida quyidagi misralarni kim kimga qarata aytadi?

*Po'lat nayza qor ostida yotarmi,  
Temir nayzang egovlasang o'tarmi.  
Sening to'rang nomardlardan emasdir,  
Mard o'g'lon sevdigin tashlab ketarmi?*

- A) Kuntug'mish Xolbekaga
- B) Buvraxon Xolbekaga
- C) Xolmo'min Xolbekaga
- D) Kuntug'mish Bahragulga

108. «Kuntug'mish»da Olatog'da yilqi boqib yurganlar qancha edi?

- A) 15 ming uyli qul
- B) 5 ming uyli qul
- C) 30 ming uyli qul
- D) 10 ming uyli qul

109. Quyidagi bayt muallifi kim?

*Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,  
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.*

- A) Ogahiy
- B) Alisher Navoiy
- C) Fuzuliy
- D) Bobur

110. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mish Zangarda nimalarni boshidan o'tkazadi?

- 1) Buvraxon qo'liga asir tushadi;
  - 2) O'limga hukm qilinadi;
  - 3) Azbarxo'ja bilan do'st tutinadi;
  - 4) Xiyonatkor Azbarxo'ja tufayli xotini, egizak o'g'illaridan vaqtincha judo bo'ladi;
  - 5) Ajdarni o'ldiradi.
- A) 1, 2, 3, 4
  - B) 1, 3, 4, 5
  - C) 1, 2, 4, 5
  - D) 3, 4, 5

111. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mish va Xolbeka taqdirini qaysi obrazlarsiz to'laqonli tasavvur qilib bo'lmaydi?

- 1) Qosim;
  - 2) Xolmo'min;
  - 3) Mullavachcha;
  - 4) Azbarxo'ja;
  - 5) Zamonqul;
  - 6) Buvraxon.
- A) 1, 2, 3, 4
  - B) 1, 2, 5
  - C) 2, 3, 4, 5, 6
  - D) 1, 4, 5, 6

112. «Kuntug'mish»da Kuntug'mish necha yoshdan keyin qilichbozlik, miltiq otish, nayzabozlik, ko'pkari chopish kabi sipohilik hunarlarini o'rganadi?

- A) o'n ikki yoshdan keyin
- B) o'n to'rt yoshdan keyin
- C) o'n yoshdan keyin
- D) o'n sakkiz yoshdan keyin

113. «Kuntug'mish»da Gurkiboyni qutqargan nechta cho'ponning qo'shi doyim bir edi?

- A) sakkiz cho'ponning
- B) o'n bir cho'ponning
- C) o'n besh cho'ponning
- D) yigirma cho'ponning

114. «Kuntug'mish»da qaysi obraz: «Podsho xalqining dushmani ko'p, agar aytsam, bu o'zi yengil ekan, bировga aytib qo'yar», – deya Mohiboydan sir saqlaydi?

- A) Kuntug'mish
- B) Gurkiboy
- C) Xolbeka
- D) Qoraxon

115. Gurkiboy bilan Mohiboyning ortidan nima uchun qo'shin jo'natilgan edi?

- A) Zil tog'ida cho'ponlarni o'ldirganliklari va Azbarxo'jani jazolaganliklari uchun
- B) Azbarxo'jani o'ldirganliklari va bir to'p yilqilarni Zarchaman cho'liga o'g'irlab ketayotganlari uchun
- C) eshik og'asini o'ldirganliklari va bir to'p yilqilarni Zil tog'iga o'g'irlab ketayotganlari uchun
- D) Olatog'da cho'ponlarni o'ldirganliklari va bir to'p yilqilarni No'g'ay yurtiga o'g'irlab ketayotganlari uchun

116. «Kuntug'mish» dostonida xalqqa bosh bo'lgan Kuntug'mish o'g'rilarga qanday jazo tayinlaydi?

- A) qo'lini kesish
- B) dorga osish
- C) tilini kesish
- D) oyog'ini chopish

117. «Kuntug'mish» dostonida Kuntug'mishning dor oldiga kelishidan qo'rqib, shoshib jallodlar kimning bo'ynidagi arqonni tortadilar?

- A) Gurkiboyning
- B) Mohiboyning
- C) Azbarxo'janing
- D) Qosimning

118. «Kuntug'mish» dostonida kimsasiz joyda oilasi bilan yolg'iz qolgan Kuntug'mish farzandlari necha yoshga to'lganda ham biror bir el daragini topolmaydi?

- |               |                 |
|---------------|-----------------|
| A) bir yoshga | B) ikki yoshga  |
| C) uch yoshga | D) to'rt yoshga |

**«JALOLIDDIN MANGUBERDI».  
«JALOLIDDIN MANGUBERDI» FOJIASI HAQIDA.  
NAZARIY MA'LUMOT. TRAGEDIYA.  
(Darslikda 131–170-betlar)**

1. O'zbek adabiyotida tragediyaning go'zal namunasi hisoblanadigan «Abulfayzxon» tragediyasining muallifi kim?  
A) Avloniy                                      B) Behbudiy  
C) Fitrat                                         D) Furqat
2. Bugungi kunda ham jahon teatrlari sahnalarida qayta-qayta o'ynalayotgan mashhur tragediyalarni toping.  
1) «Otello»;                                  2) «Gamlet»;  
3) «O'n ikkinchi kecha»;                4) «Boris Godunov»;  
5) «Venetsiya savdogari»;               6) «Romeo va Julyetta».   
A) 1, 2, 3, 4, 6                                B) 1, 2, 4, 6  
C) 1, 3, 5, 6                                    D) 2, 4, 5, 6
3. «Kolliziya» so'zi istiloh sifatida qanday ma'noni anglatadi?  
A) voqea-hodisa, harakat  
B) his-hayajon, hissiyot  
C) qarama-qarshilik, to'qnashuv  
D) evrilish, harakatsizlik
4. Yunonlarda qadimda echki terisini yopinib, turli sahna tomoshalarini ko'rsatuvchi qiziqchilar o'zlarini qanday ataganlar?  
A) odelar                                         B) tragoslar  
C) tragiklar                                      D) tragediyachilar
5. Qaysi akademik yozuvchilarimiz: «Ko'pdan buyon uzun umrli, badiiy salmoqdor sahna asarlarini orzu qilar edik. «Jaloliddin» bu orzumizga javob berishga qodir», – deya e'tirof etganlar?  
A) Hamid Olimjon va Oybek            B) Hamid Olimjon va G'afur G'ulom  
C) Mirtemir va Furqat                    D) Oybek va G'afur G'ulom
6. Mirxond o'zining qaysi asarida Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatini mufassal yozib qoldirgan?  
A) «Tarixi Jaloliya»                         B) «Shohidi iqbol»  
C) «Ravzat us-safo»                        D) «Gulshani davlat»

7. M. Shayxzoda adabiyotshunos olim sifatida qaysi jahon adabiyoti vakillarining ijodiga bag'ishlab asarlar yaratgan?

- |                        |                     |
|------------------------|---------------------|
| 1) Nizomiy Ganjaviy;   | 2) Shota Rustaveli; |
| 3) A. Deryayev;        | 4) Nekrasov;        |
| 5) Ostrovskiy;         | 6) Shevchenko;      |
| 7) Chexov;             | 8) Pushkin.         |
| A) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8 | B) 1, 2, 3, 4, 5, 7 |
| C) 1, 2, 3, 4, 6, 8    | D) 2, 3, 4, 5, 7, 8 |

8. M. Shayxzoda kimning ijodi haqida jiddiy tadqiqotlar yaratgan?

- |                       |              |
|-----------------------|--------------|
| A) Alisher Navoiyning | B) Boburning |
| C) Lutfiyning         | D) Abayning  |

9. M. Shayxzodaning Toshkent haqida yozilgan «Toshkentnoma» asari qaysi janrda yaratilgan?

- |           |          |
|-----------|----------|
| A) roman  | B) qissa |
| C) doston | D) drama |

10. M. Shayxzodaning Ikkinchi jahon urushi davrida yaratilgan asarini toping.

- |                   |                            |
|-------------------|----------------------------|
| A) «Toshkentnoma» | B) «Jaloliddin Manguberdi» |
| C) «Olqishlarim»  | D) «Zamon torlari»         |

11. M. Shayxzoda qaysi to'plamlari bilan o'zbek adabiyotida o'z ovozigacha ega bo'lgan katta iste'dod sifatida taniladi?

- |                           |                              |
|---------------------------|------------------------------|
| 1) «O'n she'r»;           | 2) «Undoshlarim»;            |
| 3) «Uchinchi kitob»;      | 4) «Jumhuriyat»;             |
| 5) «Loyiq soqchi»;        | 6) «O'n ikki»;               |
| 7) «Yangi devon»;         | 8) «Saylov qo'shiqlari»;     |
| 9) «Chorak asr devoni».   |                              |
| A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8 | B) 5, 6, 7, 8, 9             |
| C) 2, 3, 4, 5, 6, 7, 9    | D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 |

12. O'lkamizda Jaloliddin Manguberdi tavalludining necha yilligi keng nishonlandi?

- |                 |                |
|-----------------|----------------|
| A) 1200 yilligi | B) 800 yilligi |
| C) 900 yilligi  | D) 700 yilligi |

13. M. Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» dramasida Jaloliddin Manguberdi siymosini gavdalantirgan aktyor kim?

- |                    |                  |
|--------------------|------------------|
| A) Abror Hidoyatov | B) Yoqub Ahmedov |
| C) Shukur Burhonov | D) Hamza Umarov  |



14. Maqsud Shayxzodaning tinch hayot va yaratuvchanlik zavqini kuylagan she'rlardan iborat to'plamlarini aniqlang.

- |                             |                                |
|-----------------------------|--------------------------------|
| 1) «Kurash nechun»;         | 2) «Chorak asr devoni»;        |
| 3) «Kapitan Gastello»;      | 4) «Shu'la»;                   |
| 5) «Jaloliddin Manguberdi»; | 6) «O'n besh yilning daftari»; |
| 7) «Olqishlarim»;           | 8) «Zamon torlari»;            |
| 9) «Ko'ngil deydiki»;       | 10) «Jang va qo'shiq».         |
| A) 1, 3, 9, 10              | B) 2, 4, 6, 7, 8               |
| C) 3, 4, 5, 9, 10           | D) 1, 3, 5, 9, 10              |

15. M. Shayxzodaning 40-yillarda yaratgan, fashizmni yo'q qilish, tinchlikni saqlash, xalqni matonatga da'vat etish ruhida yozilgan she'rlaridan iborat to'plamlarini aniqlang.

- |                             |                                |
|-----------------------------|--------------------------------|
| 1) «Kurash nechun»;         | 2) «Chorak asr devoni»;        |
| 3) «Kapitan Gastello»;      | 4) «Shu'la»;                   |
| 5) «Jaloliddin Manguberdi»; | 6) «O'n besh yilning daftari»; |
| 7) «Olqishlarim»;           | 8) «Zamon torlari»;            |
| 9) «Ko'ngil deydiki»;       | 10) «Jang va qo'shiq».         |
| A) 3, 4, 5, 9, 10           | B) 2, 4, 6, 7, 8               |
| C) 1, 3, 5, 9, 10           | D) 1, 2, 3, 8, 9, 10           |

16. Shayxzodaning liro-epik asarlari (dostonlari) qaysilar?

- |                     |                     |              |
|---------------------|---------------------|--------------|
| 1) «O'rtoq mulk»;   | 2) «Tuproq va haq»; |              |
| 3) «Chirog'»;       | 4) «O'rtoq»;        |              |
| 5) «Meros»;         | 6) «Ovchi qissasi»; | 7) «Shu'la». |
| A) 1, 3, 4, 5, 7    | B) 2, 3, 4, 6, 7    |              |
| C) 1, 2, 4, 5, 6, 7 | D) 1, 2, 3, 4, 5, 6 |              |

17. M. Shayxzoda olim sifatida qaysi o'zbek mumtoz va zamonaviy ijodkorlarining ijodiga bag'ishlab asarlar yaratgan?

- |                   |                     |             |           |
|-------------------|---------------------|-------------|-----------|
| 1) Bobur;         | 2) Muqimiy;         | 3) Furqat;  | 4) Oybek; |
| 5) G'afur G'ulom; | 6) Hamid Olimjon;   | 7) Fuzuliy. |           |
| A) 2, 3, 4, 6, 7  | B) 1, 2, 3, 4, 5, 6 |             |           |
| C) 1, 3, 5, 6, 7  | D) 1, 2, 3, 4, 5, 7 |             |           |

18. M. Shayxzoda olim sifatida qaysi xalq og'zaki ijodi vakilining ijodiga bag'ishlab asar yaratgan?

- |                           |                      |
|---------------------------|----------------------|
| A) Fozil shoirning        | B) Po'ltan shoirning |
| C) Ergash Jumanbulbulning | D) Suyar shoirning   |

19. Mustaqilligimizdan so'ng qayerda Jaloliddin Manguberdiga haykal o'rnatildi?

- |                |               |
|----------------|---------------|
| A) Samarqandda | B) Toshkentda |
| C) Buxoroda    | D) Xorazmda   |

20. Jaloliddin Manguberding nurli qiyofasini tiklagan yodgorlikning muallifi qaysi taniqli haykaltarosh hisoblanadi?

- A) Sh. Ahmedov
- B) T. Quryozov
- C) I. Jabborov
- D) A. Mamajonov

21. «Jaloliddin Manguberdi» portretini chizgan mashhur rassomni toping.

- A) I. Jabborov
- B) T. Quryozov
- C) Sh. Ahmedov
- D) A. Mamajonov

22. «Tragediya» so'zi qaysi tilga mansub va qanday ma'noni bildiradi?

- A) yunoncha; «tragos» – echki, «ode» – qo'shiq
- B) arabcha; «tragos» – qo'shiq, «ode» – echki
- C) lotincha; «tragos» – echki, «ode» – odam
- D) inglizcha; «tragos» – odam, «ode» – echki

23. Shayxzodaning liro-epik asarlari (dostonlari) qaysilar?

- 1) «O'n birlar»; 2) «Jenya»;
- 3) «Jaloliddin Manguberdi»; 4) «Ahmadjonning hikmatlari»;
- 5) «Uchinchi o'g'il»; 6) «Nurmat otaning tushi»;
- 7) «Iskandar Zulqarnayn»; 8) «Oqsoqol»;
- 9) «Toshkentnoma».
- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- B) 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9
- C) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8
- D) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 9

24. Yunonlarda qadimda echki bilan bog'liq xalq bayramlari kimning sharafiga o'tkazilgan?

- A) urush xudosi Ares
- B) hosil xudosi Dionis
- C) dengiz xudosi Posedon
- D) bosh xudo Zevs

25. Tragediyaning boshqa sahna asarlari (komediya, drama, intermediya)dan farqi tomoni noto'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) qahramonlar orasida kuchli ziddiyatlarning bo'lishida
- B) qahramonlar taqdiri fojia bilan yakun topishida
- C) ziddiyatlarning kuchli va keskin tus olishida
- D) quvonch va qayg'uning yonma-yon kelishida

26. Qaysi asar qahramonlar xarakterining yorqinligi, ichki kolliziyaning kuchliligi, personajlar o'rtasidagi konfliktning o'ta kuchliligi bilan farqlanadi?

- A) tragediya
- B) komediya
- C) monodrama
- D) intermediya

27. Qanday asar asnosida kishilar qismati shiddatli, suronli siyosiy voqealar, turli ijtimoiy, shaxsiy qarashlar kurashi fonida ko'rsatiladi?

- A) intermedik asar
- B) fojiiy asar
- C) monodramatik asar
- D) komedik asar

28. Ispan dramaturglarini ko'rsating.

- A) Lope de Vega, Shekspir
- B) Kalderon, Shiller
- C) Kalderon, Pushkin
- D) Lope de Vega, Kalderon

29. Shekspir qaysi millat dramaturgi hisoblanadi?

- A) ispan
- B) ingliz
- C) nemis
- D) rus

30. Nemis dramaturglarini ko'rsating.

- A) Shiller, Shekspir
- B) Gyote, Kalderon
- C) Gyote, Shiller
- D) Shiller, Kalderon

31. Pushkin qaysi millat dramaturgi hisoblanadi?

- A) ispan
- B) ingliz
- C) nemis
- D) rus

32. O'zbek tragediyasining go'zal namunasi hisoblanadigan «Padarkush» tragediyasining muallifi kim?

- A) Avloniy
- B) Behbudiy
- C) Fitrat
- D) Furqat

33. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Sultonbeginning qaylig'i kim?

- A) Yaroqbek
- B) Qodog'on no'yon
- C) Sulton Muhammad
- D) Amir Badriddin

34. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Qodog'on no'yon kim?

- A) Samarqand hokimi
- B) tarixchi, Jaloliddinning kotibi
- C) Xorazmshohning sarkardalaridan
- D) Chingizning sarkardalaridan

35. Jaloliddin Manguberdi haqidagi to'g'ri tarixiy ma'lumotni toping.

- A) Jaloliddin Manguberding to'liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad bo'lib, Xorazmshohlarning so'nggi hukmdori hisoblanadi.

- B) Jaloliddin Manguberding to'liq ismi Alovuddin ibn Jaloliddin Ahmad bo'lib, Xorazmshohlarning so'nggi hukmdori hisoblanadi.
- C) Jaloliddin Manguberding to'liq ismi Muhammad ibn Shamsiddin Alovuddin bo'lib, Xorazmshohlarning so'nggi hukmdorlaridan biri hisoblanadi.
- D) Jaloliddin Manguberding to'liq ismi Muhammad Jamoliddin ibn Jaloliddin bo'lib, Xorazmshohlarning so'nggi hukmdorlaridan biri hisoblanadi.

36. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida avlodlari va xotini so'yilgan, qizi zo'rlangan, o'g'li ot dumiga bog'lanib halok etilgan, bir qizi qaynatilgan xum suviga tashlangan, kichik o'g'li tiriklayin tuproqqa ko'milgan obrazdan Sultonbegim aybi nimaligini so'raganida u qanday javob beradi?

- A) «Olim edim, vassalom».
- B) «Inson edim, vassalom».
- C) «Bitta mo'g'ul askarin o'ldirgandim, vassalom».
- D) «Mo'g'ul qizin sevardim, vassalom».

37. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida qaysi obrazning bir ko'zi ko'r edi?

- A) Qodog'on no'yonning
- B) Amir Badriddinning
- C) Elbors pahlavonning
- D) Yaroqbekning

38. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida qaysi obraz otasining xuni uchun Jaloliddindan o'ch olmoqchi bo'ladi?

- A) Yaroqbek
- B) Amir Badriddin
- C) Qodog'on no'yon
- D) Elbors pahlavon

39. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinga pichoq sanchmoqchi bo'lgan sotqinni kim o'ldiradi?

- A) Sultonbegim
- B) Nasaviy
- C) devona chol
- D) Elbors pahlavon

40. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinga pichoq sanchmoqchi bo'lgan sotqinni o'ldirgan shaxs nechanchi marta odam o'ldirishi ekanligini aytadi?

- A) birinchi marta
- B) ikkinchi marta
- C) to'rtinchi marta
- D) uchinchi marta

41. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Samarqand shahridagi ulug' allomaning kimga uzuk in'om qilganligi aytiladi?

- A) Badriddinga                      B) Jaloliddinga  
C) Sultonbegimga                  D) Jaloliddinning onasiga

42. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida qaysi sardorning o'n yara yesa ham otda tik turganligi ta'kidlanadi?

- A) Temur Malikning                  B) Elbors pahlavonning  
C) Jaloliddin Manguberding      D) Amir Badriddinning

43. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi tush tasvirida tushirib qoldirilgan ismni toping.

*Ko'rdim chaman... Urganchda... Amudaryoda –  
Arg'uvoniy kosada xushbo'y bir boda,  
Menga tutib qadim do'st der edi kulib:  
Ko'p sog'indim, shahzoda, sendan ayrilib!  
Yana bir bor ichaylik, suvdan kechaylik...  
Mayli, ichdim, tanidim. U — ... !*

- A) Badriddin                          B) devona chol  
C) Temur Malik                      D) Elbors pahlavon

44. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinni mo'g'ullar bilan bo'ladigan jang oldidan tashlab ketgan Balxiy qo'shini boshlig'i kim?

- A) Amir Badriddin B) A'zam                  C) Sayfiddin Ag'roq D) Muzaffar

45. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida qaysi qahramon quyidagi so'zlarni aytib, o'zini suvga tashlaydi?

*Bilmasin, tomirimdan olingan sof xun!  
U ochlikka yo'liqsa safarda agar,  
Buning bitta yutumi unga jonparvar...  
...Mo'g'ullarga bir oqsoch bo'lishdan ko'ra,  
Baliqlarga yem bo'lsam – afzal ming karra.  
Dunyoga oldin kelgan, oldin ham ketar  
Yashashim yetar!*

- A) Jaloliddinning onasi              B) Jaloliddinning opasi  
C) Xadichabegim                      D) Sultonbegim

46. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi satrlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?

*Eshit, xalq ham u kuyday, mangu poydor!  
Bilasanmi, biz qaytar kunda u maqom  
Yo'limizni belgilar! U kunga salom!*

- A) Jaloliddin
- B) Nasaviy
- C) Sultonbegim
- D) Jaloliddinning onasi

47. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasida Jaloliddin kimlar bilan bo'lgan muloqotda mard, yurtiga vafodor, bosqinchi va xiyonatkor kishilarga nafrati haddan ziyoda inson sifatida namoyon bo'ladi?

- A) zolim Chingizxon, o'z yurtiga xiyonatkor Shoh Muzaffar, olchoq Yaroqbeklar bilan
- B) zolim Qodog'on no'yon, o'z yurtiga xiyonatkor Shoh Muhammadali, olchoq Yaroqbeklar bilan
- C) zolim Chingizxon, o'z yurtiga xiyonatkor Shoh Muhammad, olchoq amir Badriddinlar bilan
- D) zolim Qodog'on no'yon, o'z yurtiga xiyonatkor amir Badriddin, olchoq Xorazmshohlar bilan

48. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasi bilan bog'liq noto'g'ri ma'lumotni toping.

- A) Asar matnida no'yon, soqiy, zulfiqor, mustarix, ahkom, «Hubbil – vatan, minal imon», majusiy, valiahd kabi arxaik so'zlar va iboralar qo'llanadi.
- B) Fojia buyuk sarkarda o'limi bilan tugasa-da, undagi optimistik ruh kishiga dalda beradi.
- C) Asar o'tmishda chet el bosqinchilariga qarshi xalqimiz olib borgan mardonavor kurashning yorqin sahifalarini sahna asari shaklida yoritish va uni xalqimizning fashizm bilan olib borgan kurashi o'rtasidagi mushtaraklikni ko'rsatish borasida muhim targ'ibiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etdi.
- D) Fojia so'ngida o'zini jarga tashlayotgan Nasaviyning xitobi kelajakka ishonch, yaxshi kunlar umidi bilan yo'g'rilgan.

49. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinni mo'g'ullar bilan bo'ladigan jang oldidan tashlab ketgan qipchoq amiri kim?

- A) Amir Badriddin
- B) A'zam
- C) Sayfiddin Ag'roq
- D) Muzaffar

50. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinni mo'g'ullar bilan bo'ladigan jang oldidan tashlab ketgan g'ullar boshlig'i kim?

- A) Amir Badriddin
- B) A'zam
- C) Sayfiddin Ag'roq
- D) Muzaffar

51. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida sardor bo'lib, jang maydoniga kirgan ayol kishi kim?

- A) Xadichabegim
- B) Oychechak
- C) Poyanda Sultonbegim
- D) Sultonbegim

52. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddin Temur Malikka sotqin shaxsning frib berishini anglagach, kimni jarning bo'yiga qo'shin bilan jo'natadi?

- A) Elbors pahlavonni
- B) Sultonbegimni
- C) Qodog'on no'yonni
- D) Yaroqbekni

53. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Temur Malikning qaysi qal'adan mo'g'ullarni quvib chiqarganligi ta'kidlanadi?

- A) Kat qal'asidan
- B) Tuproq qal'asidan
- C) Banokent qal'asidan
- D) Sayram qal'asidan

54. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Sultonbegimning qaysi yaqin insoni sotqin bo'lib chiqadi?

- A) o'g'li
- B) akasi
- C) turmush o'rtog'i
- D) ukasi

55. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida kimni Jaloliddin: «Jajji kelin», – deya ataydi?

- A) Sultonbegimni
- B) Esondavlatbegimni
- C) Xadichabegimni
- D) Oychechakni

56. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddin kimdan qo'shin kutayotganini aytadi?

- A) A'zamdan
- B) Sayfiddin Ag'roqdan
- C) Muzaffardan
- D) G'iyosiddindan

57. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi fikrlar qaysi obrazga tegishli?

*Xorazmshoh voz kechdi jangdan, janggohdan,  
Laqqa baliq qochganday yutqich timsohdan.  
Xarob bo'ldi Buxoro, mahv o'ldi Urganch,  
Pok tuproqni toptadi majusiy jirkanch.  
Ammo sher Jaloliddin tortdi na'rasin,  
Tig' sug'urib o'pirdi mo'g'ul marrasin.  
Beshta ulug' janglarda qochdi yov – vahshiy,  
Rost debdilar: mo'g'ulni qochirgan kishi!*

- A) Elbors pahlavonga
- B) Nasaviyga
- C) Sultonbegimga
- D) Yaroqbekka

58. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasining uchinchi parda, birinchi ko'rinishida safar kiyimida kirib kelgan obraz qaysi?

- A) Temur Malik
- B) Jaloliddin Manguberdi
- C) Sultonbegim
- D) Amir Badriddin

59. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida qaysi obraz Xorazm kiyimidagi ikki kishini poylab, ko'p yo'l bosadi va soy bo'yidagi yashirin yo'lda izlarini yo'qotadi?

- A) Elbors pahlavon
- B) Qodog'on no'yon
- C) Amir Badriddin
- D) Yaroqbek

60. Quyidagi qaysi tarixiy shaxs Kaspiy dengizi bo'yidagi Obeskun shahriga yo'l oladi va u yerdan panohtopadi?

- A) Jaloliddin Manguberdi
- B) Shahobiddin Muhammad
- C) Sultonbegim
- D) Alovuddin Muhammad

61. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi satrlar qaysi obrazga tegishli?

*Ne qilasan nomimni, unutibman o'zim ham,  
Allanima derdilar, esdan chiqqan tamoman.*

- A) Sultonbegimga
- B) cholga
- C) kanizakka
- D) devona kampirga

62. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi satrlar qaysi obrazga tegishli?

*O'yla bir devonaman, mendan qochar devonalar,  
Yostig'im tosh-u tikan, xonam bo'lib vayronalar.  
Suvda gar aksimni ko'rsam, o'z-o'zimdanda alhazar,  
Xasta soyamdan cho'chib, solmasman unga bir nazar.*

- A) kanizakka
- B) mo'g'ul askariga
- C) cholga
- D) devona ayolga

63. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida mo'g'ul xoqoni kim?

- A) Yaroqbek
- B) Chingizxon
- C) Temur Malik
- D) Qodog'on no'yon

64. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida sardor, Xo'jand hokimi kim?

- A) Temur Malik
- B) Amir Badriddin
- C) Elbors pahlavon
- D) Yaroqbek

65. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasida qaysi qahramonlar tilidan jaranglagan monologlar yurtimiz, xalqimizni sharaflagan madhiyalar kabi yangraydi?

- A) Jaloliddin, Sultonbegim
- B) Jaloliddin, Temur Malik
- C) Sultonbegim, Jaloliddin, Temur Malik
- D) devona chol, Temur Malik, Elbors pahlavon



66. Jaloliddin Manguberding otasi haqidagi to'g'ri tarixiy ma'lumotni toping.

- A) Mo'g'ul istilochilarining haybatidan cho'chigan Muhammadshoh dushmanga qarshi kurashish o'rniga, go'yo mamlakat xalqi hayotini saqlab qolish bahonasida Samarqandni tashlab orqaga chekinadi.
- B) Mo'g'ul istilochilaridan himoyalaniish maqsadida Muhammadalishoh dushmanga qarshi kurashish o'rniga, go'yo mamlakat xalqi hayotini saqlab qolish bahonasida Urganchni tashlab orqaga chekinadi.
- C) Mo'g'ul istilochilariga qarshi kurashish maqsadida Muhammadshoh mamlakat xalqi hayotini saqlab qolish uchun Urganchni tashlab orqaga chekinadi va Samarqandni mudofaa qiladi.
- D) Mo'g'ul istilochilari bilan yashirin ittifoq tuzgan Muhammadalishoh dushmanga qarshi kurashish o'rniga, go'yo mamlakat xalqi hayotini saqlab qolish bahonasida Urganchni tashlab orqaga chekinadi.

67. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Sultonbegimning qaylig'i qayerning hokimi edi?

- A) Buxoroning
- B) Xo'jandning
- C) Keshning
- D) Samarqandning

68. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Badriddinning mulozimi kim?

- A) Yaroqbek
- B) Qodog'on no'yon
- C) Amir Badriddin
- D) Muhammad Nasaviy

69. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi satrlar kim haqida, kimning tilidan aytilgan?

*Dunyodagi qoplonlar urug'iga u xoqon.  
Ko'z oldimda so'yildi avlodlarim, xotinim,  
Yosh qizginam zo'rlandi, men urildim betinim.  
O'g'lim halok etildi bog'lanib ot dumiga,  
Bir qizim qaynatildi tashlanib xum suviga.  
Kichik o'g'lim ko'mildi tiriklayin tuproqqa.*

- A) Chingizxon haqida, devona chol tilidan
- B) Chingizxon haqida, Xorazmshoh askari tilidan
- C) Xorazmshoh haqida, devona chol tilidan
- D) Xorazmshoh haqida, mo'g'ul askari tilidan

70. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida kim Xorazmlik sotqinga Sultonbegimning tuhfası deb aldab, Jaloliddinga bir bo'g'cha berishini va ulug' xoqonning jazosi deb xanjar urishini buyuradi?

- A) Elbors pahlavon
- B) Amir Badriddin
- C) Qodog'on no'yon
- D) Yaroqbek

71. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida nechanchi pardaning ikkinchi ko'rinishida sipohiy qiyofadagi Jaloliddin va uning qarorgohi, chodirlar tasvirlanadi?

- A) uchinchi
- B) birinchi
- C) ikkinchi
- D) beshinchi

72. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinning singlisi va onasi Xorazmdan chiqib, qayerga yashiringan edilar?

- A) Usmonli turk imperiyasi hududiga
- B) Afg'onistonga
- C) Eronga
- D) Iroqqa

73. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinga taqdim qilingan uzuk (muhr)ning ko'ziga yozilgan quyidagi jumlada qo'llanilgan nuqtalar o'rniga mos ismni qo'ying.

*Podsho ... shohi barru bahr,  
Sultoni Samarqand, Movarounnahr.*

- A) Jaloliddin
- B) Badriddin
- C) Xorazmshoh
- D) Chingizxon

74. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Temur Malik qaysi sotqinning hiylasi sabab mo'g'ullarga asir tushadi?

- A) Badriddinning
- B) Yaroqbekning
- C) Qodog'on no'yonning
- D) Chingizxonning

75. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasining beshinchi parda, birinchi ko'rinishida qaysi obrazning tushi tasvirlangan?

- A) Nasaviyning
- B) Sultonbegimning
- C) Temur Malikning
- D) Jaloliddinning

76. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinni nechanchi jangda yordamchilari tashlab ketadilar?

- A) beshinchi jangda
- B) oltinchi jangda
- C) sakkizinchi jangda
- D) yettinchi jangda

77. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida qaysi qahramon o'z kokillarini kesib, jangda egarlardan uzilgan otlarga ayil qilish uchun beradi?

- A) Sultonbegim
- B) Jaloliddinning onasi
- C) Jaloliddinning opasi
- D) Xadichabegim

78. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida beshinchi parda birinchi ko'rinishning so'nggida qaysi qahramon(lar) jarga tushib ketadi?

- A) Jaloliddin va Sultonbegim
- B) Jaloliddin
- C) Jaloliddin va Elbors pahlavon
- D) Jaloliddinning onasi

79. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasida Jaloliddinning kimlarga nisbatan mehribonona muomalasi aks etgan sahna epizodlari nihoyatda ta'sirchan, hayotiy chiqqan?

- A) opasi va singlisi Xadichabegimlarga
- B) onasi va singlisi Sultonbegimlarga
- C) onasi, opasi va singlisi Xadichabegimlarga
- D) onasi, opasi va singlisi Sultonbegimlarga

80. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddin Manguberding otasi kim?

- A) Muhammad Nasaviy
- B) Sulton Muhammad Alovuddin
- C) Qodog'on no'yon
- D) Amir Badriddin

81. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida tarixchi, Jaloliddinning kotibi kim?

- A) Qodog'on no'yon
- B) Muhammad Nasaviy
- C) Temur Malik
- D) Sulton Muhammad Alovuddin

82. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida kim kimga Jaloliddinning sirli o'rdasi haqida xabar beradi?

- A) chol, Sultonbegimga
- B) chol, Jaloliddin Manguberdiga
- C) cho'pon, Sultonbegimga
- D) cho'pon, Jaloliddin Manguberdiga

83. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida qaysi obraz Jaloliddinga to'nni kiydirish bahonasida unga pichoq sanchmoqchi bo'ladi?

- A) Qodog'on no'yon
- B) Amir Badriddin
- C) Yaroqbek
- D) Nasaviy

84. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida kim Jaloliddinga uzuk beradi?

- A) singlisi
- B) opasi
- C) onasi
- D) otasi

85. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Temur Malikka sotqinlik qilib, darvozani ochib bergan shaxsning taqdiri, sardor asir tushgach, nima bo'ladi?

- A) Podshoh bo'ladi.
- B) Qatl etiladi.
- C) Qochib ketadi.
- D) Vazir etib tayinlanadi.

86. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi satrlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?

*Ko'klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,  
Balki sahro bag'ridan, tog' etagidan,  
Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,  
Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda – go'rda.  
Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal,  
Kim yurtdan yovni quvsa – mendurman o'shal.*

- A) Sultonbegim
- B) Jaloliddin
- C) Nasaviy
- D) Jaloliddinning onasi

87. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasida Jaloliddinning kimlar bilan suhbatlari uni xalqparvar, elga g'amxo'r yurt rahbari qiyofasida gavdalandiradi?

- A) Temur Malik, Muhammad Nasaviy, Elbors cho'ponlar bilan
- B) Sultonbegim, Yaroqbek, devona chollar bilan
- C) Qodog'on no'yon, Muhammad Nasaviy, Elbors cho'ponlar bilan
- D) Qodog'on no'yon, Temur Malik, devona chollar bilan

88. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddinning onasi kim?

- A) Ismi berilmagan.
- B) Sultonbegim
- C) Xadichabegim
- D) Esondavlatbegim

89. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Xorazm shohi kim?

- A) Jaloliddin Manguberdi
- B) Amir Badriddin
- C) Sulton Muhammad Alovuddin
- D) Temur Malik

90. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida nechanchi pardaning birinchi ko'rinishi xarob manzara: yiqiq devorlar, cho'kik imoratlar, kesik daraxtlar, ufqda yongan bog'lar, tepalar va epizodik obrazning g'amgin ashulasi bilan boshlanadi?

- A) birinchi
- B) uchinchi
- C) ikkinchi
- D) to'rtinchi

91. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Xorazmlik sotqin odamga Jaloliddin Manguberдини o'ldirishni buyurib, xanjar bergan obraz kimning o'qidan bir ko'zining ko'r bo'lib qolganini aytadi?

- A) Amir Badriddinning
- B) Alovuddin Xorazmshohning
- C) Jaloliddin Manguberding
- D) Temur Malikning

92. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi satrlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?

*Ne lozim, shahzodam, ulug' qahramon,  
Kerakmas menga hech tuhfa, in'omlar...  
Kerakmas unvonlar, oliy maqomlar,  
Sadoying eshitdim, o'zga kerakmas,  
Kimsasiz ko'nglimga shuning o'zi bas!*

- A) Sultonbeginning mahrami
- B) ko'r no'yon
- C) chol
- D) cho'pon

93. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Jaloliddin va mo'g'ullar orasida nechta jang bo'lganligi ta'kidlanadi?

- A) yettita
- B) to'qqizta
- C) beshta
- D) to'rtta

94. «Jaloliddin Manguberdi» tragediyasida Jaloliddinning Vatanga xiyonat yo'lga o'tgan qaysi kimsalarga nafratli murojaatlari mavjud?

- A) otasi Muhammadshoh, Elbors pahlavon, Yaroqbekka
- B) otasi Muhammadshoh, amir Badriddin, Yaroqbekka
- C) otasi Muhammadalishoh, Qodog'on no'yon, Chingizxonga
- D) otasi Muhammadalishoh, amir Muuzaffar, Qodog'on no'yonga

95. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida shohning qizi, Jaloliddinning tug'ishgan singlisi kim?

- A) Xadichabegim
- B) Oychechak
- C) Esondavlatbegim
- D) Sultonbegim

96. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida cho'pon kim?

- A) Temur Malik
- B) Amir Badriddin
- C) Elbors pahlavon
- D) Yaroqbek

97. Shahobiddin Muhammad al-Nasaviy o'zining qaysi asarida Jaloliddin Manguberding hayoti va faoliyatini mufassal yozib qoldirgan?

- A) «Shohidi iqbol»
- B) «Tarixi Jaloliya»
- C) «Ravzat us-safo»
- D) «Gulshani davlat»

98. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida kim kimga kallalardan yasalgan minoradan bir kalla olib ko'rsatadi?

- A) chol, Sultonbegimga
- B) chol, Jaloliddin Manguberdiga
- C) cho'pon, Sultonbegimga
- D) cho'pon, Jaloliddin Manguberdiga

99. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida Sultonbegimning tuhfasida deb aldash Jaloliddinga bir bo'g'cha bergan va unga xanjar urmoqchi bo'lgan obraz qaysi?

- A) Elbors pahlavon
- B) Yaroqbek
- C) Amir Badriddin
- D) Qodog'on no'yon

100. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidan olingan quyidagi misralar qaysi obrazga qarata aytilgan?

*Senga nishon bosmish sevgi, deydilar,  
Seni ishq qasridan belgi, deydilar.  
Lekin voqif bo'lgach maxfiy muhringdan,  
Voz kechdim husningdan, ishq-u mehringdan.*

- A) qilichga
- B) Sultonbegimga
- C) Badriddinga
- D) uzukka

101. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida mo'g'ullar bilan bo'ladigan jang oldidan kimlar o'lja tufayli janjallashib, Xorazmshoh qo'shinlarini tark etadilar?

- A) afg'onlar
- B) qipchoqlar
- C) g'urlar
- D) Balxiy qo'shini

102. «Jaloliddin Manguberdi» fojiasida beshta og'ir yarasi bilan jangdan chiqib, tarixiy voqealar bitilgan daftarini Jaloliddinga topshirgach, vafot etgan tarixchi kim?

- A) Yaroqbek
- B) Nasaviy
- C) Temur Malik
- D) Qodog'on no'yon

103. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida ko‘r no‘yon va sotqinning Jaloliddinni o‘ldirish haqidagi pinhona suhbatini kim eshitib qoladi?

- A) Sultonbegimning mahrami
- B) cho‘pon
- C) Sultonbegimning kanizagi
- D) devona chol

104. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida uzuk (muhr)ning ko‘zidagi yozuvni birinchi bo‘lib kim o‘qiy oladi?

- A) Nasaviy
- B) Sultonbegim
- C) Jaloliddin
- D) devona chol

105. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasida kimlar jang paytida so‘l tomondan qochib, mo‘g‘ullar tomonga o‘tib ketadilar?

- A) afg‘onlar
- B) qipchoqlar
- C) g‘urlar
- D) Balxiy qo‘shini askarlari

106. «Jaloliddin Manguberdi» dramasiidagi tarixiy shaxslarni toping.

- A) Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshoh, Temur Malik
- B) Elbors pahlavon, Jaloliddin Manguberdi, Qodog‘on no‘yon
- C) Jaloliddin Manguberdi, Xorazmshoh, Elbors pahlavon
- D) Elbors pahlavon, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik

107. «Jaloliddin Manguberdi» dramasiidagi badiiy to‘qima obrazlarni toping.

- A) Qodog‘on no‘yon, Xorazmshoh, devona chol
- B) Sultonbegim, devona chol
- C) Elbors pahlavon, devona chol
- D) Qodog‘on no‘yon, Sultonbegim

### QO‘SHIMCHA TESTLAR

108. Shayxzoda qanday oilada tug‘ilgan?

- A) shifokor oilasida
- B) muallim oilasida
- C) savdogar oilasida
- D) dehqon oilasida

109. Qaysi davr M. Shayxzoda ijodining yuqori darajaga ko‘tarilgan, uni chinakam vatanparvar ijodkor ekanini namoyon qilgan davr bo‘ldi?

- A) 20-yillar
- B) 40-yillar – urush davri
- C) 60-yillar
- D) 50-yillar – urushdan keyingi yillar

110. Shayxzoda boshlang'ich va o'rta ma'lumotni o'zi tug'ilgan shahrida olgach, qayerda sirtidan tahsil oladi?

- A) Boku Oliy pedagogika institutida
- B) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida
- C) Moskva pedagogika institutida
- D) O'zbekiston Oliy pedagogika institutida

111. Shayxzoda 1925-yildan qayerlarda o'qituvchi bo'lib ishlay boshlagan?

- A) Til va adabiyot institutida
- B) Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida
- C) Agdash (Oqtosh)dagi 1-bosqich ozarbayjon maktabida, Toshkentdagi ta'lim va tarbiya texnikumida
- D) Darbanddagi 1-bosqich ozarbayjon maktabida, Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida

112. M. Shayxzoda 1935–1938-yillarda qayerda ilmiy xodim bo'lib ishlaydi?

- A) O'zbekiston Fanlar Komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida
- B) Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida
- C) Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida
- D) Boku Oliy pedagogika institutida

113. Maqsud Shayxzoda 1938-yildan umrining oxirigacha qanday faoliyat bilan shug'ullangan?

- A) Ozarbayjon poytaxti Bokudagi Oliy pedagogika instituti o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlaydi.
- B) Til va adabiyot institutida o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlaydi.
- C) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida o'qituvchi bo'lib ishlaydi.
- D) Turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida muharrir bo'lib ishlaydi.

114. Maqsud Ma'sum o'g'li Shayxzoda qachon va qayerda tug'ilgan?

- A) 1903-yilda O'zbekistonning Agdash (Oqtosh) shahrida
- B) 1910-yilda O'zbekistonning Agdash (Oqtosh) shahrida
- C) 1908-yilda Ozarbayjonning Agdash (Oqtosh) shahrida
- D) 1905-yilda Ozarbayjonning Agdash (Oqtosh) shahrida



115. «Jaloliddin Manguberdi» tarixiy fojiasidagi voqealar qachon bo'lib o'tgan?

- A) XII asrning birinchi choragida
- B) XIII asrning birinchi choragida
- C) XII asrning ikkinchi choragida
- D) XIII asrning ikkinchi choragida

116. M. Shayxzoda mohir tarjimon sifatida qaysi yozuvchilarning asarlarini o'zbek tiliga ag'dargan?

- 1) Shota Rustaveli;      2) Shekspir;      3) Lermontov;
  - 4) Nizomiy;      5) Fuzuliy;      6) Mirza Fatali Oxundov;
  - 7) Ezop;      8) Esxil;      9) Gyote;
  - 10) Bayron;      11) Mayakovskiy;      12) Nozim Hikmat.
- A) 1, 2, 4, 6, 8, 9, 10, 11, 12
  - B) 2, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 11, 12
  - C) 1, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11
  - D) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12

117. M. Shayxzodaning 30-yillarda chop etilgan to'plamlarini aniqlang.

- 1) «O'n she'r»;      2) «Undoshlarim»;      3) «Uchinchi kitob»;
  - 4) «Jumhuriyat»;      5) «Loyiq soqchi»;      6) «O'n ikki»;
  - 7) «Yangi devon»;      8) «Saylov qo'shiqlari»;
  - 9) «Chorak asr devoni»;      10) «Olqishlarim»;      11) «Zamon torlari».
- A) 1, 2, 6, 7, 8, 9, 10, 11
  - B) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8
  - C) 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9
  - D) 1, 2, 3, 4, 5, 7, 9, 10

**9-§. SAID AHMAD**

**«QOCHOQ». «UFQ» ROMANI HAQIDA.  
NAZARIY MA'LUMOT. ROMAN SHAKLLARI.  
(Darslikda 185–216-betlar)**

1. Said Ahmadning qaysi romanida «qizil imperiya»ning rang-barang nayranglari tufayli hayoti fojiali kechgan kishilar taqdiri bo'yab-bejalmasdan, haqqoniy ko'rsatilgan?
  - A) «Ufq»
  - B) «Kelinlar qo'zg'oloni»
  - C) «Kiprikdagi tong»
  - D) «Jimjitlik»
2. Said Ahmadning mustaqillik yillarida yaratilgan kitoblarini toping.
  - 1) «Xandon pista»;
  - 2) «Bir o'pichning bahosi»;
  - 3) «Kelinlar qo'zg'oloni»;
  - 4) «Qorako'z majnun»;
  - 5) «Kiprikdagi tong»;
  - 6) «Tanlangan asarlar»;
  - 7) «Yo'qotganlarim va topganlarim».
  - A) 1, 2, 3, 4, 5
  - B) 1, 2, 5, 6, 7
  - C) 3, 4, 5, 6, 7
  - D) 1, 2, 4, 5, 6, 7
3. Said Ahmad qalamiga mansub komediyani toping.
  - A) «Yo'qotganlarim va topganlarim»
  - B) «Qorako'z majnun»
  - C) «Kelinlar qo'zg'oloni»
  - D) «Jimjitlik»
4. Said Ahmadning jami qancha kitobi nashr etilgan?
  - A) o'ttizdan ortiq
  - B) qirqqa yaqin
  - C) ellikka yaqin
  - D) oltmishdan ortiq
5. Said Ahmadning to'liq ismi-sharifini toping.
  - A) Saidahmad Imomxo'jayev
  - B) Saidahmad Ahmadxo'jayev
  - C) Saidahmad Husanxo'jayev
  - D) Saidahmad Xolxo'jayev
6. Said Ahmad qaysi ijodkorning ixcham va teran fikrlash fazilatini o'zida mujassamlashtira olgan adib hisoblanadi?
  - A) Hamid Olimjonning
  - B) Abdulla Qahhorning
  - C) Fitratning
  - D) Furqatning

7. Said Ahmadning kitoblarini toping.

- |                     |                           |
|---------------------|---------------------------|
| 1) «Er yurak»;      | 2) «Farg'ona hikoyalari»; |
| 3) «Cho'l burguti»; | 4) «Quyosh belanchagi»;   |
| 5) «Muhabbat».      |                           |
| A) 1, 2, 4, 5       | B) 1, 2, 3, 4             |
| C) 1, 2, 3, 5       | D) 1, 3, 4, 5             |

8. Said Ahmadning mustaqillik yillarida necha jildidan iborat «Tanlangan asarlar»i nashr qilingan?

- A) 3 jildidan    B) 5 jildidan    C) 7 jildidan    D) 8 jildidan

9. Said Ahmadning dastlabki hikoyalar to'plamini toping.

- |               |                          |
|---------------|--------------------------|
| A) «Er yurak» | B) «Farg'ona hikoyalari» |
| C) «Tortiq»   | D) «Cho'l burguti»       |

10. Said Ahmadning qaysi asari nafaqat adibning ijodida, balki adabiyotimizda ham ulkan voqea bo'lgan uch qismli asar bo'lib, roman-trilogiya hisoblanadi?

- |                |                           |
|----------------|---------------------------|
| A) «Ufq»       | B) «Kelinlar qo'zg'oloni» |
| C) «Jimjitlik» | D) «Farg'ona hikoyalari»  |

11. Said Ahmad qaysi ijodkorning psixologik tasvir mahoratini o'zida mujassamlashtira olgan adib hisoblanadi?

- |                      |                       |
|----------------------|-----------------------|
| A) G'afur G'ulomning | B) Abdulla Qahhorning |
| C) Usmon Nosirning   | D) Oybekning          |

12. Said Ahmadning xalqimizning sho'ro hukumati davridagi zohiran tinch, turg'unlik yillarida kechirgan kunlaridan hikoya qiladigan asari qaysi?

- |                      |                           |
|----------------------|---------------------------|
| A) «Jimjitlik»       | B) «Kelinlar qo'zg'oloni» |
| C) «Kiprikdagi tong» | D) «Ufq»                  |

13. Said Ahmad qaysi ijodkorning yumorini o'zida mujassamlashtira olgan adib hisoblanadi?

- |                      |                       |
|----------------------|-----------------------|
| A) G'afur G'ulomning | B) Mirtemirning       |
| C) Mirkarim Osimning | D) Abdulla Qahhorning |

14. Said Ahmadning mustaqillik yillarida yaratgan hajviy to'plamlarini toping.

- |                                                             |
|-------------------------------------------------------------|
| A) «Xandon pista», «Bir o'pichning bahosi»                  |
| B) «Jimjitlik», «Xandon pista»                              |
| C) «Yo'qotganlarim va topganlarim», «Qorako'z majnun»       |
| D) «Yo'qotganlarim va topganlarim», «Bir o'pichning bahosi» |

15. «Ufq» roman-trilogiyasining ikkinchi kitobi qanday nomlangan?

- A) «Hijron kunlarida»      B) «Ufq bo'sag'asida»  
C) «Qirg besh kun»      D) «Qochoq»

16. «Qochoq» hikoyasidan olingan quyidagi ta’rif qaysi qahramonga tegishli?

«Sovun tegmagan betlari kir, ham koʻrpa, ham toʻshak oʻrnini bosgan toʻnining yenglari titilib, etaklari balchiqqa belanganidan dogʻ bosib ketgandi. Uning bir vaqtlar qizlarni shaydo qilgan qopqora koʻzlari endi maʼyus, atrofqa maʼnosiz boqardi».

- A) Tursunboy      B) Nizomjon  
C) To'lanboy      D) A'zamjon

17. «Qochoq» hikoyasida Tursunboyning (hamma narsadan kechganida ham) ko'nglining bir chekkasidagi ilinijini toping.

- A) ovqat olib keladigan onasi  
B) aybini avf etishi mumkin bo'lgan otasi  
C) sevgan qizi – Zebixon bilan topishishi  
D) gachonlardir odamlar orasiga qaytishi

18. «Qochoq» hikoyasidan olingan quyidagi parchada kim haqida gap ketyapti?

«U tugʻib katta qilgan onasining jasadini begonalar yelkada tabarruk qilib koʻtarib ketayotganlarini koʻra turib ham bir qadam oldinga jilmasdi». «U ota diydoridan, ota mehridan, yor-birodarlar davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetadigan joyda quvgʻin boʻlib olamdan oʻtgan edi».

- A) To'lanboy  
B) Tursunboy  
C) Ikromjon  
D) A'zamjon

19. «Qochog» hikoyasi «Ufq» romanining qaysi kitobidan olingan?

- A) «Qirq besh kun»  
B) «Ufq bo'sag'asida»  
C) «Hijron kunlarida»  
D) «Ufq»

20. Roman mavzu jihatidan qanday turlarga bo'linadi?

- 1) tarixiy roman;  
2) harbiy roman;  
3) iqtisodiy roman;  
4) sarguzasht va fantastik roman;  
5) ijtimoiy-falsafiy roman;  
6) ma'naviy roman;  
7) zamonaviy roman.
- A) 1, 2, 3, 4, 7  
B) 1, 2, 4, 5, 7  
C) 3, 4, 5, 6, 7  
D) 1, 2, 3, 5, 6

21. Umumiy mazmuni, g'oyasi, asosiy qahramonlari, voqealar tizimining o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi bilan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ikki kitobdan iborat ikki mustaqil roman nima deb yuritiladi?

- A) roman-trilogiya
- B) roman-dilogiya
- C) roman-tetralogiya
- D) romanlar turkumi

22. «Jan Kristof» asarining muallifini toping.

- A) Najib Mahfuz
- B) Roje Marten dyu Gar
- C) Romen Rollan
- D) Lermontov

23. Romen Rollanning «Jan Kristof» romani nechta jildlik roman hisoblanadi?

- A) o'n ikki jildlik
- B) sakkiz jildlik
- C) olti jildlik
- D) o'n jildlik

24. Balzakning «Insoniyat komediyasi» asari romanning qaysi turiga mansub?

- A) romanlar turkumi
- B) tetralogiya
- C) epopeya
- D) trilogiya

25. «Ufq» romanining qaysi qismida qahramonlarning urushda va front ortidagi qahramonliklari haqida hikoya qilinadi?

- A) «Hijron kunlarida»
- B) «Ufq bo'sag'asida»
- C) «Ufq»
- D) «Qirq besh kun»

26. Najib Mahfuzning «Xan al-Xalili» asari hajmi va shakliga ko'ra romanning qaysi turiga kiradi?

- A) roman-trilogiya
- B) roman-dilogiya
- C) roman-tetralogiya
- D) romanlar turkumi

27. Roman o'zining hajmi va shakliga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- 1) dilogiya; 2) trilogiya; 3) tetralogiya; 4) romanlar turkumi; 5) epopeya.
- A) 1, 2, 3, 5
- B) 1, 2, 3
- C) 1, 2, 3, 4
- D) 1, 2, 3, 4, 5

28. O'rta asrlarda roman tillarida yozilgan har qanday asarni qanday ataganlar?

- A) nasr
- B) epik asar
- C) roman
- D) drama

29. «Qochoq» hikoyasida Ikromjon to'qayda sochlari o'sib yelkasiga tushgan, kiyimlarining juldiri chiqqan, yuzlari chivin chaqqandan yara bo'lib ketgan odamning Tursunboylicini qanday tanib qoladi?

- A) ovoztan
- B) ko'ztan
- C) xoltan
- D) kiyimtan

30. «Qochoq» hikoyasida Tursunboy onasi va Zebini kimtan qizg'anadi?

- A) Ikromjontan
- B) A'zamjontan
- C) Nizomjontan
- D) Rayimtan

31. «Qochoq» hikoyasida Tursunboyning onasi kim?

- A) Jannat
- B) Asrora
- C) Dildor
- D) Zebi

32. «Qochoq» hikoyasida Tursunboyning kasal, behol holda ko'rgan onasi sababini so'rganida u qanchadan beri tuz totmaganini aytadi?

- A) ikki kundan beri
- B) bir haftadan beri
- C) uch kundan beri
- D) ikki haftadan beri

33. «Qochoq» hikoyasida uchraydigan qishloq nomini toping.

- A) Zirillama
- B) Beshariq
- C) Begvachcha
- D) Beshyog'och

34. Quyidagi fikrlar muallifi kim?

*«Bu kitobni kitobxon boshdan-oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'ztan chiqadigan har bir so'zi rost...»*

- A) Said Ahmad
- B) Abdulla Qahhor
- C) O'tkir Hoshimov
- D) Oybek

35. Oybekning «Quyosh qoraymas», Shuhratning «Shinelli yillar» romanlari mavzusiga ko'ra qanday roman hisoblanadi?

- A) tarixiy roman
- B) harbiy roman
- C) ishqiy roman
- D) siyosiy roman

36. Umumiy mazmuni, g'oyasi, asosiy qahramonlari, voqealar tizimining o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi bilan bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi to'rt kitobtan iborat to'rtta mustaqil roman nima deb ataladi?

- A) roman-trilogiya
- B) roman-dilogiya
- C) roman-tetralogiya
- D) romanlar turkumi

37. Jahon adabiyotida kimlar roman-trilogiyaning mukammal namunalarini yaratganlar?

- |                   |                  |
|-------------------|------------------|
| 1) L.N. Tolstoy;  | 2) S.T. Aksakov; |
| 3) Jon Golsuorsi; | 4) Najib Mahfuz; |
| 5) Vasiliy Yan;   | 6) V. Katayev.   |
| A) 1, 2, 3, 4, 5  | B) 2, 3, 4, 5, 6 |
| C) 1, 3, 5, 6     | D) 1, 2, 4, 5    |

38. «Ufq» romanining qaysi qismida qahramonlarning urushdan so'nggi taqdirlari tasvirlangan?

- |                       |                       |
|-----------------------|-----------------------|
| A) «Hijron kunlarida» | B) «Ufq bo'sag'asida» |
| C) «Ufq»              | D) «Qirq besh kun»    |

